ISSN:3030-332X
Impact factor: 9,493
International journal of scientific researchers

# DAVLAT TILIDA NUTQ SO'ZLASH VA RITORIKA (NOTIQLIK) MAHORATI

**M. Najimiddinova**
Andijon davlat chet tillari instituti
Xorijiy filologiya va turizm fakulteti
Filologiya va tillarni o'qitish yo'nalishi
2-bosqich talabasi
https://doi.org/10.5281/zenodo.24143348

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada davlat tilida nutq so'zlash madaniyati, ritorikaning shakllanish tarixi, nazariy asoslari hamda zamonaviy jamiyatdagi ahamiyati tahlil qilinadi. Shuningdek, o'zbek adabiy tili me'yorlariga rioya qilish, nutqning kommunikativ sifatlarini rivojlantirish, omma oldida so'zlash mahoratini shakllantirish masalalariga alohida e'tibor qaratiladi. Bugungi raqamli axborot makonida ijtimoiy tarmoqlarning yoshlar nutqiga ta'siri, internet muloqotida uchraydigan til muammolari va ularning yechimlari ham yoritiladi.
**Kalit so'zlar:** davlat tili, o'zbek tili, ritorika, notiqlik san'ati, nutq madaniyati, kommunikativ sifatlar, adabiy til me'yorlari, ommaviy nutq, ijtimoiy tarmoqlar, muloqot madaniyati.

**Аннотация:** В данной статье анализируются культура выступления на государственном языке, история становления и теоретические основы риторики и ораторского искусства, а также их значение в современном обществе. Особое внимание уделяется соблюдению норм литературного узбекского языка, развитию коммуникативных качеств речи и формированию навыков публичного выступления. Кроме того, рассматривается влияние социальных сетей на речь молодёжи в современном цифровом информационном пространстве, а также языковые проблемы, возникающие в интернет-коммуникации, и пути их решения.
**Ключевые слова:** государственный язык, узбекский язык, риторика, ораторское искусство, культура речи, коммуникативные качества, нормы литературного языка, публичная речь, социальные сети, культура общения.

**Annotation:** This article analyzes the culture of public speaking in the state language, the historical development and theoretical foundations of rhetoric and oratory, as well as their significance in modern society. Particular attention is paid to observing the norms of the Uzbek literary language, developing communicative qualities of speech, and improving public speaking skills. Furthermore, the article examines the influence of social media on young people's speech in today's digital information environment, including language-related issues arising in online communication and possible ways to address them.
**Keywords:** state language, Uzbek language, rhetoric, oratory, speech culture, communicative qualities, literary language norms, public speaking, social media, communication culture.

Til har bir millatning ma'naviy boyligi, tarixiy xotirasi va milliy o'zligini namoyon etuvchi eng muhim vositalardan biri hisoblanadi. Insoniyat taraqqiyotining barcha bosqichlarida til jamiyat a'zolari o'rtasidagi muloqotni ta'minlash, bilim va tajribalarni avloddan avlodga yetkazish, ijtimoiy

munosabatlarni shakllantirishda beqiyos ahamiyat kasb etgan. Ayniqsa, davlat tilining jamiyat hayotidagi o‘rni, uning rivojlanishi va amaliy qo‘llanilishi mamlakatning ma’naviy hamda madaniy taraqqiyoti bilan chambarchas bog‘liqdir.

O‘zbekiston Respublikasida o‘zbek tiliga davlat tili maqomi 1989-yil 21-oktabrda berilgan. Bu tarixiy voqea milliy davlatchilik, ma’naviy tiklanish va xalqning milliy o‘zligini anglash jarayonida muhim qadam bo‘ldi. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 4-moddasida o‘zbek tili davlat tili ekani belgilangan. Shu bilan birga, mamlakatimizda yashovchi barcha millat va elatlarning tillari, urf-odatlari hamda an’analarini hurmat qilish tamoyili ham mustahkamlangan.

Davlat tiliga hurmat faqat uning qonuniy maqomini tan olish bilangina cheklanmaydi. Bu hurmat, avvalo, kundalik hayotda, ta’lim jarayonida, kasbiy faoliyatda, rasmiy munosabatlarda va ommaviy chiqishlarda o‘zbek tilidan to‘g‘ri, ravon hamda o‘rinli foydalanishda namoyon bo‘ladi. Bugungi globallashuv va axborot texnologiyalari rivojlangan davrda insonning bilim darajasi bilan bir qatorda o‘z fikrini boshqalarga aniq va ta’sirchan yetkazish qobiliyati ham muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Ritorika qadimgi davrlardan shakllanib kelgan bo‘lib, insonning o‘z fikrini mantiqiy, ravon, chiroyli va ta’sirchan tarzda ifodalash mahoratini o‘rganuvchi fan hisoblanadi. “Ritorika” atamasi yunon tilidagi “rhetorike” so‘zidan kelib chiqqan bo‘lib, notiqlik san’ati ma’nosini anglatadi. Notiqlik san’atining dastlabki rivojlanish markazlaridan biri Qadimgi Yunoniston bo‘lgan. Ayniqsa, demokratik boshqaruv shakllangan davrda fuqarolarning xalq yig‘inlari va sud majlislarida o‘z fikrlarini himoya qilish zarurati notiqlik san’atining rivojlanishiga katta ta’sir ko‘rsatgan.

Qadimgi yunon faylasufi Aristotel o‘zining “Ritorika” asarida ishontirish san’atining nazariy asoslarini ishlab chiqqan. U notiqning muvaffaqiyatli chiqishi uchta muhim omilga bog‘liqligini ta’kidlagan:

Ethos — notiqning shaxsiy obro‘si, bilim darajasi va tinglovchilarda ishonch uyg‘ota olish qobiliyati.

Pathos — tinglovchilarning his-tuyg‘ulariga ta’sir ko‘rsatish mahorati. Logos — fikrning mantiqiyligi, dalillarning asoslanganligi va izchilligi.

Qadimgi Rimda ham notiqlik san’ati yuksak darajada rivojlangan. Mashhur Rim notig‘i Mark Tulliy Sitseron notiqning bilimdonligi, nutqining mazmuni va ifoda uslubiga katta e’tibor qaratgan. Uning qarashlariga ko‘ra, haqiqiy notiq keng bilimga, boy lug‘at zaxirasiga va kuchli nutqiy mahoratga ega bo‘lishi lozim. Demak, ritorika oddiy so‘zlash yoki chiroyli gapirish bilangina chegaralanmaydi. U insonning tafakkuri, bilim darajasi, nutq madaniyati va kommunikativ qobiliyatlarini birlashtiruvchi murakkab san’atdir.

Davlat tilida nutq so‘zlash madaniyati — o‘zbek adabiy tili me’yorlariga rioya qilgan holda fikrni aniq, ravon, mantiqiy va ta’sirchan ifodalash qobiliyatidir. Nutq madaniyati insonning umumiy madaniyati bilan bevosita bog‘liq. Chunki insonning qanday so‘zlashi, so‘zlarni qanday tanlashi va suhbatdoshiga qanday munosabatda bo‘lishi uning dunyoqarashi hamda tarbiyasi haqida muayyan tasavvur beradi.

Nutqning to‘g‘riligi. Adabiy tilning grammatik, leksik, fonetik va orfoepik me’yorlariga rioya qilishni anglatadi. Paronim so’zlardan to‘g‘ri foydalanish, so‘zlarni to‘g‘ri talaffuz qilish, gaplarni grammatik jihatdan to‘g‘ri tuzish va so‘zlardan o‘z o‘rnida foydalanish nutqning asosiy talablaridandir.

Nutqning aniqligi. Fikrning tinglovchiga tushunarli va bir ma’noli yetkazilishi nutq aniqligini ta’minlaydi. Ilmiy ma’ruza davomida mavzuga aloqasi bo‘lmagan so‘zlardan foydalanish yoki tushunarsiz iboralarni ko‘p ishlatish tinglovchining e’tiborini susaytiradi.

Nutqning mantiqiyligi. Nutqdagi fikrlar o‘zaro bog‘liq, izchil va asoslangan bo‘lishi lozim. Kirish, asosiy qism va xulosaning bir-birini to‘ldirishi mantiqiy nutqning muhim belgisidir.

Nutqning sofligi. Nutqning sofligi unda shevaga xos, qo‘pol, noo‘rin va keraksiz takrorlardan o‘rinli foydalanmaslikni talab etadi. Biroq bu boshqa tillardan kirib kelgan barcha so‘zlarni inkor etish degani emas. Muhimi, mavjud o‘zbekcha muqobil so‘zlardan imkon qadar to‘g‘ri foydalanishdir.

Nutqning boyligi. Lug‘at zaxirasining kengligi, sinonimlardan, iboralardan, maqol va hikmatli so‘zlardan o‘rinli foydalanish nutqning boyligini oshiradi.

Nutqning ifodaliligi va ta’sirchanligi. Nutqning ohangi, urg‘usi, pauzalari, obrazli ifodalar va misollardan foydalanish tinglovchiga kuchliroq ta’sir ko‘rsatishga yordam beradi.

Ushbu sifatlar bir-biri bilan uzviy bog‘liq. Ularning barchasiga amal qilgan inson o‘z fikrini samarali ifodalash imkoniyatiga ega bo‘ladi.

Bugungi kunda notiqlik mahorati deyarli barcha kasb va faoliyat yo‘nalishlarida muhim o‘rin egallaydi. Xususan, pedagog, jurnalist, siyosatchi, huquqshunos, rahbar va boshqa mutaxassislarning faoliyatida nutqiy mahorat asosiy kommunikativ vositalardan biri hisoblanadi.

Pedagog uchun notiqlik san’ati bilimlarni o‘quvchilarga tushunarli yetkazish, ularning qiziqishini oshirish va mustaqil fikrlashga undash imkonini beradi. O‘qituvchi qanchalik bilimdon bo‘lmasin, agar o‘z bilimini tushunarli va qiziqarli tarzda bayon eta olmasa, uning ta’limiy faoliyati samaradorligi pasayishi mumkin.

Jurnalist uchun voqea-hodisalarni xolis, aniq va ravon yoritish, suhbatdosh bilan muloqot o‘rnatish va auditoriyaga axborotni tushunarli yetkazish muhimdir. Rahbar va davlat xizmatchilarining nutqi esa rasmiy muloqot madaniyatini, tashkilotning ishchanlik muhitini va fuqarolar bilan munosabatlar sifatini belgilashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Notiqlik mahorati insonning o‘ziga bo‘lgan ishonchini ham mustahkamlaydi. Omma oldida chiqish qilish, munozarada qatnashish, savollarga aniq javob berish va o‘z nuqtayi nazarini dalillar bilan himoya qilish ko‘nikmalari muntazam mashq orqali rivojlanadi. Shu sababli oliy ta’lim muassasalarida talabalarning nutqiy kompetensiyasini rivojlantirishga alohida e’tibor qaratish zarur.

Zamonaviy axborot texnologiyalari va ijtimoiy tarmoqlar insonlar o‘rtasidagi muloqot shakllarini tubdan o‘zgartirdi. Bugungi yoshlar vaqtining muayyan qismini Telegram, Instagram, YouTube va boshqa raqamli platformalarda o‘tkazmoqda. Bu jarayon tilning qo‘llanilishiga ham sezilarli ta’sir ko‘rsatmoqda.

Ijtimoiy tarmoqlarning ijobiy jihatlaridan biri shundaki, ular insonlarga o‘z fikrlarini keng auditoriyaga yetkazish, yangi so‘zlarni o‘rganish, turli mavzularda munozaralarda qatnashish va bilim almashish imkonini beradi. O‘zbek tilidagi sifatli ta’limiy videolar, elektron lug‘atlar, audiokitoblar va ilmiy sahifalar yoshlarning til bilimini oshirishga xizmat qilishi mumkin.

Biroq ijtimoiy tarmoqlarda nutq madaniyatiga salbiy ta’sir ko‘rsatuvchi holatlar ham uchraydi. Masalan:

- So‘zlarni qisqartirib, imlo qoidalariga rioya qilmasdan yozish.
- O‘zbekcha so‘zlarning o‘rniga noo‘rin xorijiy so‘zlarni ishlatish.
- Shevaga xos iboralarni rasmiy va ilmiy muloqotda ham qo‘llash.
- Qo‘pol va hurmatsiz ifodalardan foydalanish.
- Fikrni dalillarsiz, hissiyotga berilgan holda bayon qilish.
- Bir xil so‘z va iboralarni ortiqcha takrorlash.

Ayniqsa, yozma muloqotda tinish belgilari va imlo qoidalariga e’tiborsizlik keyinchalik yozma nutq ko‘nikmalariga ham salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin. Bu o‘rinda muhim jihat shuki, internet tili va kundalik suhbat tili har doim ham rasmiy adabiy til bilan bir xil bo‘lishi shart emas. Har bir muloqot shaklining o‘ziga xos xususiyatlari mavjud. Asosiy masala — insonning qaysi vaziyatda qanday til vositalaridan foydalanishni bilishidir.

Masalan, do‘stlar bilan norasmiy yozishmada qo‘llanadigan qisqartmalarni ilmiy maqola, rasmiy hujjat yoki universitetdagi taqdimotga ko‘chirish maqsadga muvofiq emas. Shunday ekan, yoshlar orasida raqamli savodxonlik bilan bir qatorda nutqiy savodxonlikni ham rivojlantirish zarur.

Notiqlik san’ati tug‘ma qobiliyat bilangina belgilanmaydi. U muntazam mashq, izlanish, bilim olish va o‘z ustida ishlash orqali shakllanadi. Nutq mahoratini rivojlantirish uchun quyidagi usullardan foydalanish mumkin:

Birinchidan, muntazam kitob o‘qish. Badiiy, ilmiy va publitsistik asarlarni o‘qish insonning lug‘at boyligini oshiradi, fikrlash doirasini kengaytiradi va gap tuzish mahoratini rivojlantiradi. Chet tillarini o‘rganishda ikki tilli tarjima lug‘atlardan foydalanib so‘z boyligini oshirgani kabi o‘zbek adabiy tilidan keng va erkin foydalanishda ham izohli lug‘atlardan foydalanib so‘zlarni qo‘llash o‘rinlarini yaxshiroq o‘rganish lozim.

Ikkinchidan, ovoz chiqarib o‘qish. Matnlarni ovoz chiqarib o‘qish talaffuz, nafasni boshqarish va nutq ohangini rivojlantirishga yordam beradi.

Uchinchidan, omma oldida chiqish qilish. Turli mavzularda qisqa ma’ruzalar tayyorlash, auditoriya oldida fikr bildirish va savollarga javob berish orqali hayajonni boshqarish hamda o‘ziga ishonchni oshirish mumkin.

To‘rtinchidan, munozaralarda qatnashish. Bahs-munozaralar insonni o‘z fikrini dalillar bilan asoslashga, qarama-qarshi nuqtayi nazarlarni tinglashga va mantiqiy xulosa chiqarishga o‘rgatadi.

Beshinchidan, nutqni tahlil qilish. O‘z chiqishini audio yoki video shaklida yozib olib, talaffuz, tezlik, ortiqcha takrorlar va fikrlar izchilligini tahlil qilish foydali natija beradi.

Oltinchidan, faol tinglash ko‘nikmasini shakllantirish. Yaxshi notiq faqat gapirishni emas, balki tinglashni ham bilishi kerak. Suhbatdoshning fikrini bo‘lmasdan tinglash, uning nuqtayi nazarini tushunish va munosib javob qaytarish muloqot madaniyatining muhim talabidir.

Bundan tashqari, notiq auditoriyaning yoshi, bilimi, qiziqishi va ehtiyojlarini hisobga olishi zarur. Chunki bir xil nutq barcha tinglovchilar uchun birdek tushunarli va qiziqarli bo‘lmasligi mumkin.

O‘zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzini oshirish faqat tilshunos olimlar yoki ta’lim muassasalarining vazifasi emas. Bu jarayonda har bir fuqaroning o‘ziga xos mas’uliyati mavjud.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 20-oktabrdagi PF-6084-son Farmoni bilan 2020–2030-yillarda o‘zbek tilini rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish konsepsiyasi tasdiqlangan. Unda davlat tilining barcha sohalarda to‘g‘ri qo‘llanilishini ta’minlash, uning ilm-fan tili sifatidagi nufuzini oshirish, til sofligini saqlash va aholining nutq madaniyatini yuksaltirish kabi muhim vazifalar belgilangan.

Mazkur vazifalarni amalga oshirishda ta’lim muassasalari, ommaviy axborot vositalari, davlat tashkilotlari va jamoatchilikning hamkorligi muhim ahamiyatga ega. Ayniqsa, yosh avlodda ona tiliga hurmat, adabiy til me’yorlariga rioya qilish va davlat tilida erkin fikr bildirish ko‘nikmalarini shakllantirish lozim.

Buning uchun ta’lim jarayonida nutqiy mashqlar, ijodiy topshiriqlar, notiqlik musobaqalari va munozaralardan keng foydalanish maqsadga muvofiq.

Shuningdek, zamonaviy texnologiyalar yordamida o‘zbek tilidagi elektron lug‘atlar, imlo tekshiruv dasturlari, ilmiy platformalar va sifatli ta’limiy materiallarni ko‘paytirish ham til taraqqiyotiga xizmat qiladi.

Xulosa qilib aytganda, davlat tilida nutq so‘zlash va ritorika san’ati insonning ma’naviy kamoloti, intellektual salohiyati va ijtimoiy faolligini belgilovchi muhim omillardan biridir. Nutq madaniyati insonning nafaqat qanday gapirishini, balki qanday fikrlashini, suhbatdoshiga munosabatini va jamiyatdagi o‘rnini ham namoyon etadi.

Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, zamonaviy jamiyatda notiqlik mahoratiga bo‘lgan ehtiyoj tobora ortib bormoqda. Ayniqsa, yoshlarning ijtimoiy tarmoqlardan foydalanish jarayonida adabiy til me’yorlariga rioya qilishi, yozma va og‘zaki nutq madaniyatini birgalikda rivojlantirishi muhimdir.

Mazkur mavzuni o‘rganish asosida quyidagi xulosalarga kelish mumkin:

1.Davlat tilining nufuzi uning huquqiy maqomi bilan bir qatorda kundalik hayotda to‘g‘ri va samarali qo‘llanilishiga ham bog‘liq.

2.Ritorika va notiqlik san’ati insonning fikrlash, muloqot qilish va o‘z nuqtayi nazarini asoslash qobiliyatlarini rivojlantiradi.

3.Nutqning to‘g‘riligi, aniqligi, mantiqiyligi, sofligi va ta’sirchanligi samarali muloqotning asosiy shartlaridir.

4.Ijtimoiy tarmoqlardan ongli foydalanish yoshlarning nutqiy va raqamli savodxonligini oshirishga xizmat qilishi mumkin.

5.Ta’lim muassasalarida amaliy notiqlik mashg‘ulotlarini ko‘paytirish yoshlarning omma oldida erkin va ishonchli so‘zlash ko‘nikmalarini shakllantiradi.

Shunday ekan, ona tilimizning boy imkoniyatlaridan unumli foydalanish, uni asrab-avaylash va rivojlantirish har birimizning burchimizdir. Zero, ravon nutq — yuksak tafakkur, yuksak tafakkur esa taraqqiyotning muhim omilidir.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR**

1. **G‘ulomov A., Ne’matov H.** Ona tili ta’limi mazmuni. — Toshkent: O‘qituvchi, 1995.
2. **Mahmudov N.** O‘qituvchi nutq madaniyati. — Toshkent: Alisher Navoiy nomidagi O‘zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti, 2007.
3. **Sayfullayev B.** O‘zbek notiqlik san’ati tarixi va nazariyasi. — Toshkent: Fan va texnologiya, 2014.
4. **Yunusov M.** Nutq madaniyati va amaliy stilistika. — Toshkent: Akademnashr, 2018.
5. **Aristotel.** Ritorika / Qadimgi yunon falsafasi va estetikasi. — Toshkent: Mumtoz so‘z, 2012.
6. **Sitseron M. T.** Notiq haqida. — Toshkent: Yangi asr avlodi, 2016.
7. **Berdiyorov H.** O‘zbek tili nutq madaniyati ocherklari. — Toshkent: Fan, 2005.